XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-iyul VI-88-91-9-132-K/24 Yangiyer shahar

Yangiyer shahri hududidagi nomlari takrorlangan ko‘chalarni qayta nomlash hamda nomlanmagan ko‘chalarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori, Yangiyer shahridagi “Binokor”, “Ma’rifat”, “Yangiobod”, “Shodiyona”, “Shukrona”, “Fazilat”, “Davlatobod”, “Yuksalish”, “Navro‘zobod”, Temur Malik nomli, Zahiriddin Muhammad Bobur nomli va Abdurahmon Jomiy nomli mahalla fuqarolar yig‘inlarining murojaatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 20-fevraldagi 03/08-1653-sonli va 2024-yil 29-apreldagi 03/08-4076-sonli xatida bayon qilingan ekspert xulosasi ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Yangiyer shahridagi “Binokor”, “Ma’rifat”, “Yangiobod”, “Shodiyona”, “Shukrona”, “Fazilat”, “Davlatobod”, “Yuksalish”, “Navro‘zobod”, Temur Malik nomli, Zahiriddin Muhammad Bobur nomli va Abdurahmon Jomiy nomli mahalla fuqarolar yig‘inlarining murojaatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 20-fevraldagi 03/08-1653-sonli va 2024-yil 29-apreldagi 03/08-4076-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasiga asosan shahar hududidagi nomlari takrorlangan va nomlanmagan ko‘chalarga nom berish ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar statistika bo‘limi (N.Xo’janboyev), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (A.Bekmatov) va tegishli mutasaddi tashkilotlar mazkur qaror asosida amalga oshirilayotgan tegishli o‘zgarishlarni e’tiborga olsin va tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritsin.

4. Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (F,Babaxanov) ko‘cha nomlarini belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalarga yozib o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

5. Shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi (Sh.Xolbutayev) fuqarolarning xorijga chiqish, kirish uchun hujjatlarini rasmiylashtirishda ko‘chalarning qayta nomlanganligiga e’tibor qaratsin.

6. Shahar Kengashining 2024-yil 24-iyundagi VI-87-85-9-132-K/24-son “Yangiyer shahri hududidagi nomlari takrorlangan ko‘chalarni qayta nomlash hamda nomlanmagan ko‘chalarga nom berish to‘g‘risida”gi qarori shahar adliya bo‘limidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmaganligi sababli hamda adliya bo‘limining 2024-yil 3-iyuldagi 1-20/190-sonli taqdimnomasiga asosan mazkur qaror qonun hujjatlariga muvofiqlashtirilsin hamda ushbu qaror loyihasi adliya bo`limidan huquqiy ekspertizadan o`tkazilishi ta'minlansin.

7. Ushbu qaror “Yangiyer xayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

8. Shahar hokimligi matbuot xizmati (F.Xaydarov) ushbu qarorning mazmuni va ahamiyatini ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritsin.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining barcha doimiy komissiyalar va shahar hokimining o‘rinbosari J.Egamberdiyev zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi NOSIROV OTABEK URAL O‘G‘LI

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2024-yil 16-iyuldagi
VI-88-91-9-132-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi tomonidan shahardagi ko‘chalarga berilgan nomlar
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi
1.	Ko‘cha	Ma’rifat MFY	Nomsiz ko‘cha	Nufuzli
2.	Berk ko‘cha	Ma’rifat MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Kattasoy-1
3.	Berk ko‘cha	Ma’rifat MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Alisher Navoiy
4.	Ko‘cha	Yangiobod MFY	Nomsiz ko‘cha	Uzumzor
5.	Ko‘cha	Yangiobod MFY	Nomsiz ko‘cha	Totuvlik
6.	Ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz ko‘cha	Zumrad
7.	Ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz ko‘cha	Zarhal
8.	Ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz ko‘cha	Sanoat
9.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Sanoat tor
10.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Paxtakor-1
11.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Paxtakor-2
12.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Paxtakor-3
13.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Taraqqiyot-1
14.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Taraqqiyot-2
15.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Loyihachilar
16.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Temur Malik-1
17.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Temur Malik-2
18.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Lutfiy-1
19.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Lutfiy-2
20.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Lutfiy-3
21.	Tor ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Tinchlik
22.	Berk ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Tinchlik-1
23.	Berk ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Tinchlik-2
24.	Berk ko‘cha	Temur Malik nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Tinchlik-3
25.	Ko‘cha	Shodiyona MFY	Nomsiz ko‘cha	Mezbon
26.	Ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli	Nomsiz ko‘cha	Moziy

		MFY		
27.	Berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Moziy
28.	Ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz ko‘cha	Minora
29.	Berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Minora
30.	Tor ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Minora
31.	Berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Chilonzor
32.	Berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Al-Farg‘oniy
33.	Tor ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Abdurahmon Jomiy-1
34.	Tor ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Abdurahmon Jomiy-2
35.	Berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy
36.	Berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Abdulla Avloniy
37.	Berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Chiroqchilar
38.	Tor ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Chiroqchilar
39.	Berk ko‘cha	Abdurahmon Jomiy nomli MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Paxtakor-1
40.	Berk ko‘cha	Shukrona MFY	Fuzuliy-1	Navbahor-1
41.	Berk ko‘cha	Shukrona MFY	Chirchiq-1	Navbahor-2
42.	Berk ko‘cha	Shukrona MFY	Buxoro-1	Navbahor-3
43.	Tor ko‘cha	Shukrona MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Fuzuliy
44.	Berk ko‘cha	Shukrona MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Bahor
45.	Berk ko‘cha	Fazilat MFY	Guldasta-1	Bog‘iston
46.	Berk ko‘cha	Fazilat MFY	Mehmondo‘st-1	Chamanzor
47.	Tor ko‘cha	Davlatobod MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Alisher Navoiy
48.	Tor ko‘cha	Davlatobod MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Yangibog‘
49.	Tor ko‘cha	Navro‘zobod MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Sayqal
50.	Tor ko‘cha	Navro‘zobod MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Muqanna
51.	Tor ko‘cha	Yuksalish MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Birdamlik
52.	Ko‘cha	Zahiriddin Muhammad Bobur nomli, Temur Malik nomli, Fazilat, Shukrona, Abdurahmon Jomiy nomli mahallalari	Nomsiz ko‘cha	Paxtakor

53.	Tor ko‘cha	Binokor MFY	Guliston-1	Sportchilar-1
54.	Berk ko‘cha	Binokor MFY	Guliston-2	Sportchilar
55.	Ko‘cha	Binokor MFY	Guliston-3	Sportchilar
56.	Tor ko‘cha	Binokor MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Sportchilar-2
57.	Ko‘cha	Binokor MFY	Guliston (Toshkent-Xovos temir yo‘l kesishmasidan Al-Buxoriy ko‘chasigacha bo‘lgan qismi)	Al-Buxoriy
58.	Berk ko‘cha	Binokor MFY	Hidoyat	Al-Buxoriy-1
59.	Berk ko‘cha	Binokor MFY	G‘ofur G‘ulom	Al-Buxoriy-2
60.	Tor ko‘cha	Binokor MFY	Nomsiz tor ko‘cha	Al-Buxoriy
61.	Tor ko‘cha	Binokor MFY	Ma’naviyat	Toxir Malik
62.	Ko‘cha	Binokor MFY	Sirdaryo	Dilnavo
63.	Berk ko‘cha	Binokor MFY	Nomsiz berk ko‘cha	Buyuk ipak yo‘li